



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAFKURA RUHIDA TARBIYALASH USULLARI

Matmusayeva Muxayyo Azamovna, o'qituvchi
Kabirova Shaxnozaxon Zokirjon qizi, talaba
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Istiqlol yillarida shakllanayotgan yanticha tafakkur va dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga, xalqiga mehribonlikni, tanlagan kasbi, e'tiqodiga sodiqlikni, yurtim va elim deb yashashga o'rgatishni nazarda tutadi. Yangicha tafakkur va yangicha fikrlash aynan mustaqillik mafkurasini ruhida tarbiya topib sayqallashgan ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, ta'lim, innovatsiya, mafkura, vatan, barkamol avlod.*

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta'lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta'lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, bolalarni mafkura ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari esa shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga va xususiyatlariga qarab belgilanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuasidan iboratdir.

Tarbiya – kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib, o'sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini bajarib kelgan bo'lsa-da, ammo har bir jamiyatda tarbiyaning mazmuni maqsadi, vazifalari, o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur hodisa bo'lib, yosh avlodga ilmiy bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalarini maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib berish hamda yosh avlodni har tomonlama shakllangan etuk inson qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash muammolari dastlab xalq og'zaki ijodi, pedagogikasi, yozma yodgorliklarda, pandnomalarda mutafakkir hamda ma'rifatparvarlar asarlarining bosh mavzusini tashkil etgan. Abdulla Avloniy tarbiya haqida gapirar ekan, haqli ravishda shunday degan edi: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat – yo falokat masalasidir». Demak, tarbiya va odob Vatanga cheksiz muhabbat, imon-e'tiqod, mehr-muruvvat, rostgo'ylik, adolatgo'ylik, samimiylig, mehnatsevarlik va bilimdonlik kabi g'oyalar vositasida shakllanib boradi.





Ma'lumki, insoniyat tarixi – g'oyalar tarixi deb bejiz aytilmagan. Chunki g'oya inson tafakkurining mahsuli sanaladi. Shunga ko'ra, milliy g'oya millat tafakkurining mahsulidir. Demak, milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsadlar sari etaklaydigan fikrlar, qarashlar majmuidir.

Mafkura esa muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muammolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir.

Milliy mafkura ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi. Bu mafkura xalqni-xalq, millatni-millat etadigan, uning sha'ni, sharafi, or-nomusi ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir. Shunday ekan fikr va qarash milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr o'ziga xos bir qarashdir, ijtimoiy fikr esa voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G'oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tugalganda esa butun bir davr tarixiga aylantiradi. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariya, ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur egalari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Sokrat, Platon, Konfutsiy va Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy hamda Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol timsolidir.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki xil g'oya shakllangan bo'lib, biri bunyodkorlik bo'lsa, ikkinchisi buzg'unchilikdir. Bu g'oyalar doimo o'zaro kurashib kelgan.

Milliy mafkura:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;

- xalqning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi;

- adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi;

- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi;

- jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;

- millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi.

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z





muddaolariga eripgash uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan.

Milliy mafkuramizning bosh g'oyasi – O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi bo'lib, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlarini va bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqadtsas bo'lgan yuksak oliy qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Inson, asosan, ikki yo'l bilan tarbiyalanishi mumkin: birovlarining bevosita ta'siri, ya'ni o'rgatishi, shuningdek, donolar fikrlari, o'g'itlari va asarlarini o'qish orqali; inson o'zining fikrlashi, odamlar xatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi; eng qudratlisi tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin.

Mustaqillik sharofati bilan qadimgi urf-odatlar, an'analar va marosimlarga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, kelajak avlodni yangicha ruhda tarbiyalashda, ular ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yangicha an'ana va marosimlar ta'sirchan vositalardan biri bo'lib qoladi.

Har bir jamiyatda kishilarning muayyan urf-odat va marosimlari shakllanadi. Ular muayyan g'oyalar, qarashlar, axloq me'yorlarini ham ifodalaydi. Vatanimiz mustaqilligi tufayli yangicha an'analar, marosimlar va urf-odatlar qaror topdi. Ular tarixga aylanib borar ekan, sodir bo'lgan buyuk voqealarni, xalqimiz turmushidagi unutilmas hodisalarni o'z negizida mujassamlashtiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T., «Fan va texnologiya», 2008.
2. A.Minavvarov. Pedagogika. T., «O'qituvchi». 1996.
3. Yu.P.Azlarov. Bolalarni sevish san'ati. T., 1992.
4. Ashurova, O. (2021). Analysis of foreign experience on the development of eco-aesthetic culture of future preschool education specialists. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1478-1484.
5. Ashurova, O. A. (2021). SOCIO-HISTORICAL TRADITIONS OF DEVELOPMENT OF ECOESTHETIC CULTURE OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 46-52.
6. Ashurova, O. (2021, December). THE IMPORTANCE OF AESTHETICITY OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE IN THE ACTIVITIES OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 88-90).
7. Ботирова, Н. (2020). Обучающие возможности тестовых технологий. *Профессиональное образование и общество*, (3), 68-71.
8. Ботирова, Н. Д. (2019). РАЗВИТИЮ ПРОДУКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. *Гуманитарный трактат*, (61), 4-6.





9. Ботирова, Н. Д. РАЗВИТИЮ ПРОДУКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ DEVELOPMENT OF PRODUCTIVE THINKING OF YOUNGER SCHOOLBOYS. *Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 4.*

10. Jabborova, M. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Экономика и социум, (6-1), 129-132.*

11. Матмусаева, М. А. (2017). Оилада болаларни меҳнатга ўргатиш. *Молодой ученый, (4-2), 23-24.*

12. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАР ПОРТФОЛИОЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ ШАРОИТЛАРИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 9, pp. 129-131).* Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.

13. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШНИНГ ИННОВАЦИОН ХАРАКТЕРИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 9, pp. 127-128).* Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.

14. Арипов, З. Т. (2020). ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНО-РЕЧЕВОЙ ГОТОВНОСТИ СТАРШИХ ДОШКОЛЬНИКОВ К ОБУЧЕНИЮ. In *ПРОБЛЕМЫ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 108-112).*

15. Toirjonovich, A. Z. (2022). XALQ O'YINLARINING ETNOPEdagogik TASNIFI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 77-81.*